

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
DEKABR
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
1-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-1**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-1**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Abdiraximov Behruz Ozatboyevich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOSHQARUVI.....	7
2. Mamatxanov Elshod Shuxratovich	
O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI.....	9
3. Nurakbayev Umid Tursunbayevich	
YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH.....	11
4. Usmonova Nigora Rustamovna	
VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNATGA BO‘LGAN HUQUQLARI.....	13
5. Самандаров Учкун Уктамович	
МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАРНИНГ ТОРТИШУВИ ВА ТЕНГ ҲУҚУҚЛИЛИГИ	15
6. Boboxonova Muyassar Ruzimurodovna	
O‘QUVCHILARNI HUQUQ FANIGA QIZIQTIRISHDA TURLI XIL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	18



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Abdiraximov Behruz Ozatboyevich

Xorazm viloyati Gurlan tumani

28-umumiy o'rta ta'lim maktabi

huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi, uni tashkil qiluvchi hokimiyat tizimi va bularning hammasi mamlakat konstitutsiyasi tayanib ishlashi kerakligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, konstitutsiya, hokimiyat, qonun, huquq, organ.

O'zbekiston Respublikasida “xalq – hokimiyatning birdan bir manbai” ekanligi konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Ushbu ta'kid davlat huquqiy faoliyatning mazmunini, uning asosini tashkil qiladi. Davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko'zlab o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi konstitutsiyada qat'iy belgilangan, davlat hokimiyati zimmasiga qo'yilgan bosh vazifadir.

Davlat hokimiyatining faoliyati xalq hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyat, avvalambor, konstitutsiya va qonunlar bilan belgilangan tartibda davlatning Konstitutsiyada belgilangan organlari va mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ham o'z navbatida vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan saylovlar orqali tarkiban shakllanib yoki almashib turadi.

O'zbekiston suverenitetining huquqiy asosi – Asosiy qonuni **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** bo'lib, ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida, 1992- yil 8- dekabrda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro hujjatlar, jumladan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, rivojlangan demokratik davlatlarda mavjud bo'lgan demokratik tamoyillar va qadriyatlar, vatanimiz tarixidagi bir necha ming yillik milliy va sharqona davlatni idora etish an'analari o'zida mujassamlashtirdi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasi suveren O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining muhim tomonlarini konstitutsiyaviy jihatdan tartibga solishning umumiy prinsiplarini mustahkamladi, davlat boshqaruvining mohiyatini belgilab berdi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzumning asosiy shartlaridan biri bo'lmish xalq hokimiyatchiligini mustahkamlab beradi.

Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati oliy organlarining tuzilishi, hokimiyatlarning bo'linish prinsipi asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. (O'z.Res.Kons. 11-modda).

Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi – huquqiy davlatning eng muhim belgilaridandir. Bu prinsip barcha rivojlangan demokratik davlatlarda amal qiladigan asosiy konstitutsiyaviy qoidalaridan biridir. Bu har xil mamlakatlar konstitutsiyalarida shunchaki belgilab qo'yilgan oddiy demokratik qoida emas, balki hokimiyatning bir organda to'planishining oldini olishga qaratilgan konstitutsiyaviy qoidadir. Chunki, ko'p asrlik davlatchilik taraqqiyoti tajribalari shuni ko'rsatdiki, hokimiyat bir organda to'planganida jiddiy suiste'molliklar yuz berishiga sharoit tug'iladi.

Hokimiyat bo'linishida konstitutsiyaviy prinsip qo'llanib, davlat boshqaruvi islohoti amalga



oshirilar ekan, mamlakatimizda quyidagi qoidalarga amal qilindi:

1. Mamlakatimizda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari o‘zaro yagona davlat mexanizmi sifatida o‘zaro bog‘liqlikda faoliyat ko‘rsatishlari bilan bir paytda, ular nisbatan mustaqil hamdir;

2. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud funksiyalarini bajaruvchi respublika miqyosidagi davlat organlari o‘rtasida hokimiyat vakolatlarining muayyan nisbati mavjud. Ya’ni ularning vakolatlari muvozanatlashgandir. Mana shu muvozanatni saqlash uchun huquqiy islohotlar amalga oshirib turiladi.

Davlat boshqaruvining yuqori respublika miqyosidagi organlari o‘zlarining quyi – mahalliy organlari bilan ham chambarchas bog‘liqlikda ish olib boradilar. Davlat boshqaruvining mahalliy organlari faoliyatining muhimligi, avvalambor, ularning fuqarolar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va tashkilotlar bilan bevosita ishlashlaridir. Shuning uchun ham davlat boshqaruvining mahalliy organlari faoliyatiga mamlakatimizda alohida e’tibor berilmoqda.

Konstitutsiyamizning yana bir demokratik jihati, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlarda davlat va fuqaro o‘rtasidagi doimiy siyosiy-huquqiy aloqa belgilab qo‘yilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz davlat boshqaruvida misli ko‘rilmagan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat hayotiga doir har bir qaror xalq bilan muhokama qilinganidan so‘ng qabul qilinmoqda. Bunda muhokamalar bevosita muloqot tarzida o‘tkazilayotgani diqqatga sazovordir.

Mamlakatimiz davlat boshqaruvida shunday amaliyot yo‘lga qo‘yildiki, unga ko‘ra, davlat xodimlari, birinchi rahbarlardan tortib, o‘z kabinetlarida o‘tirmasdan, joylarga borib, aholining eng og‘riqli va dolzarb muammolarining amaliy yechimi bilan shug‘ullanmoqda.

Mamlakatimizda xalq bilan muloqot qilish, uning hayotiy muammolarini hal qilish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildiki, bu tizim davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘ini sanaladi. Bu tizimning asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent; 2014 yil.
2. O. Karimova va boshq. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari. 8- sinfi uchun darslik. T., 2019.
3. E. Yusupov va boshq. Ijtimoiy boshqaruv tizimi evolyutsiyasi va davlatning shakllanishi. -T., 2005.



O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

Mamatxanov Elshod Shuxratovich

Podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi
IIV Akademiyasi Magistraturasi,
Tashkiliy taktik boshqaruv 4-guruh tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, u keltiradigan zararlar, o'tgan yillardagi korrupsiyaga oid jinoyatlar, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, zarar, jinoyat, davlat, qonun, huquq, norma, xorij, reja.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti *Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida* ta'kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida” gi Konvensiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrda “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli **“O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi Farmoni** qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi* tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik



jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, *2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning* pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, *2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga* nisbatan korrupsiya bilan bog'liq 590 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi, korrupsiyaga qo'l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning *25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi* vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta'lim, davlat xizmati ko'rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog'liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan **Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH** kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to'g'risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda **150 dan ortiq mamlakatda** qo'llanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
2. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hamkor tashkilotlar.
3. www.iiv.uz
4. www.ombudsman.uz



YOSHLAR ORASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH

Nurakbayev Umid Tursunbayevich

Mayor, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada yoshlar orasidagi jinoyat va huquqbuzarliklar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar haqida, shuning bu jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, huquqbuzarlik, yoshlar, ta'lim, oila, tarbiya, profilaktika, qonun, voyaga yetmaganlar, jamiyat, nazorat, kasb, ota-ona.

Bugungi kunda yoshlar ta'lim va tarbiyasi davlat siyosatining dolzarb masalalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zahirida har tomonlama barkamol – jismonan sog'lom, aqlan yetuk, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilish ustuvor maqsadimizdir.

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda yoshlar jinoyati va huquqbuzarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Jinoyat va huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

Yoshlik insonning porloq kelajagi uchun urug' qadaydigan bahor pallasidir. Bu ne'matdan unumli foydalanib, o'zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o'rin egallashga kirishgan insonning ertasi nurafshon. Ammo, ayrimlar “Yoshlik – beboshlik” deya nojo'ya harakatlarga qo'l urib jinoyat ko'chasiga kirib qolganini bilmay qolyapti. Bundaylar o'z boshiga o'zi kulfat sotib oladi, desak xato bo'lmaydi. Agar ular ham o'z muvaffaqiyatlari bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shayotgan yoshlardan ibrat olganida, ularning ota-onalari farzandlariga befarq bo'lmaganlarida edi bugun yoshlar jinoyatchiligi ancha kamayardi. Adashgan yoshlar mayda bezorilik, o'g'irlikka qo'l urib bebaho, betakror umrning oltinga teng davrini panjara ortida o'tkazmagan bo'lardilar.

Xalqimiz azaldan bolajonlik fazilatini namoyon qilib, farzandni dunyoga keltirishdan tortib, to kamolga yetkazgunga qadar uning ta'minoti, ta'lim-tarbiyasi va bilim olishi, kasb-hunar egallashiga, umuman, yetuk inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Milliy qonunchiligimizda ham bu insonparvar qadriyatlarimiz o'zining teran ifodasini topgan.

Xususan, Asosiy Qonun — Konstitutsiyamiz, Oila kodeksi, “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi, “Vasiylik va homiylik to'g'risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunlar, Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlarida yoshlar, ayniqsa, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarining ishonchli himoyasi kafolatlangan. Shunday ekan, bola dunyoga kelganidan boshlab unga g'amxo'rlik qilish, sog'lom va to'g'ri tarbiya hamda zamonaviy ta'lim olishini ta'minlash – ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Har qaysi ota-ona o'z farzandlariga nisbatan mutasaddi va mas'ul ekanini unutmasligi lozim. Zero, bu farzand kelajagi, uning komil inson bo'lib voyaga yetishida eng muhim va zarur omildir.

Yoshlar ertamiz ko'zgusi. Ularning kelajagi butun bir millatning shirin tashvishidir. Hozirda barcha jabhada yoshlar masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish uchun nafaqat ota-ona, mahalla, balki bir qator tashkilot va idoralar ham mas'ul etib belgilangan.

Bugun jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining yoshlar o'rtasida kuzatilayotgani achchiq haqiqat. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar umumiy jinoyatlarga nisbatan 25 foizga yetgan. Mutasaddilar “Kasalni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'qul”, degan naqlga amal qilgan holda jinoyat bilan kurashishda dastlab yoshlarni jinoyat qilishga undaydigan sabablar, holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralari ko'rmoqda. Yoshlar orasidagi jinoyatlarning



ildizi ham xuddi shu jihatlardan qidirilmoqda.

Yoshlar orasida jinoyatchilik ko'rsatkichining oshishida albatta, oilaning, xususan ota-onalarning aybi katta. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining ayni qaysi nuqtasida xatoga yo'l qo'yishyapti?

Oila va undagi tarbiya har bir yosh uchun muhim ahamiyatga ega. Aynan oilada farzand ongiga ezgu g'oyalar singdirilib borilishi va jinoyatlarning eng kichigi va eng og'irlari ham inson hayotidagi katta ijtimoiy tanazzul ekanligini tushuntirib beruvchi tarbiya muhiti shakllanishi zarur. Tarbiyada jamiyatdagi, jumladan, oiladagi ijtimoiy nazorat muhimdir. Ya'ni oilada ota-onalar farzandlar bilan muloqot, so'rov, tinglash, maslahatlarni tahlil qilish orqali dunyoqarashini shakllantirishga vaqt topishmaydi, ana shu sababli ayrim yoshlar o'z bilganicha ish qilishmoqda.

Bugun ota-onalar o'z vaqtini qiyinchiliklarsiz shohona hayotga ega bo'lishni tarannum etuvchi xorij seriallari, jamiyatda tarbiya va milliy ma'naviyatdan ustun qilib ko'rsatilayotgan mazmunsiz shoular va ko'rsatuvlar hamda jinoyatchilik, ilmsizlik, adolatsizlikka qarshi kurashishdagi sayoz ssenariylarga, xorij mafkurasiga asoslangan ko'chirma o'zbek seriallariga sarflamoqda. Shuningdek, ota-onalar telefon va internet hamda ijtimoiy tarmoqlardagi asoslanmagan o'tkinchi ma'lumotlarga sarflayapmiz. Go'yoki biz o'zimizni bu bilan farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgandek, "nazorat qilayotgandek" ko'rsatamiz. Aslida esa unday emas. Ta'kidlaganimizdek, oilada va tarbiya maskanlarida yoshlarning jinoyatchilikdan yiroq bo'lib shakllanishidagi eng maqbul yo'l – bu ijtimoiy nazoratdir.

O'zbekiston yoshlar o'rtasida turli xil illatlarni oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida salmoqli ishlarni amalga oshirilmoqda. Xususan, mustaqillik qo'lga kiritilganidan 3 oy o'tmasdan, ya'ni 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2016 yilga kelib "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi, qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi.

Parlamentning yoshlar bilan ishlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida, yaqinda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi va o'zining faoliyatini boshladi.

Yoshlarning, ayniqsa uyushmagan, ish bilan band bo'lmagan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmagan yoshlarning kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratishga, bandligini ta'minlashga, ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishga ko'maklashish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritish ushbu komissiya asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi.

Xalqimizda "kasalni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'qul", degan naql bor. Demak, bu borada hamma aybni u yoki bu idoraga, tashkilotga yuklab qo'yish to'g'ri emas. Bu masalada hammamiz javobgarmiz. Zotan, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish uchun nafaqat ichki ishlar idoralari xodimlari, ota-ona, mahalla, balki barcha tashkilot va idoralar ham mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2833- sonli Prezident qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2021 y.
3. R.X.Dushanov, Y.A.Farfiyev. Kasbiy psixologiya. Darslik. O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. T.,2014.
4. <https://xs.uz/uz/>
5. www.iiv.uz



VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNATGA BO'LGAN HUQUQLARI

Usmonova Nigora Rustamovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani

Chilonzor tuman 2-sonli kasb hunar maktabi

Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarni ishga qabul qilayotganda ularga beriladigan imtiyoz va huquqlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, mehnat kodeksi, huquq, yosh, qonun, vaqt.

Ko'pchilik mehnatga bo'lgan munosabat fuqarolarda voyaga yetgandan keyin ya'ni 18 yoshga to'lgan fuqarolargagina beriladi deb tasavvur qilishadi. Ammo mehnat huquqi mehnat faoliyati davomida vujudga keladigan odamlar orasidagi munosabatlarni tartibga soladigan huquq sohasi bo'lib, voyaga yetmaganlarda ya'ni O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq 18 yoshga yetmaganlarda ham mavjuddir.

Ishga qabul qilinayotgan xodimdan, yoshi haqida so'raladi, chunki O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq ish beruvchi voyaga yetmaganlarni faqat 15 yoshdan boshlab ishga qabul qilishga haqlidir. Ish beruvchi mehnatga tayyorlash maqsadida o'quvchilarni 15 yoshdan boshlab, qonun talablariga muvofiq o'qishdan bo'sh vaqtlarida ishga qabul qilinishi mumkin. Bu esa mehnat qonun xujjatlarining manbalari bo'lgan Konstitutsiya va Mehnat kodeksi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi, Prezident farmonlari, qonunlar va Vazirlar Maxkamasining qarorlari bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Mehnat kodeksiga ko'ra barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadirlar. Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya qilinishini, tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi. Barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb xisoblagan shaxs kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilgan holda o'zining huquqlarini himoya qilishga egadirlar.

18 yoshga to'lmagan shaxslar mehnatga oid huquqiy munosabatlarda katta yoshdagi xodimlar bilan teng huquqda bo'ladilar, mehnatni muxofaza qilish, ish vaqti, ta'tillar va boshqa mehnat shartlari sohasida ular uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ xujjatlarda belgilangan qo'shimcha imtiyozlardan foydalanadilar.

Mehnati huquqining xususiyati shundan iboratki, amalda har qanday masala, agar bunday qaror Mehnat kodeksi qoidalariga zid bo'lmasa va xodimning ahvolini yomonlashtirmasa, mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida hal etishi mumkin.

Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi. (*O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 8 –modda*).

Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarining sog'ligiga hamda ma'naviy va ahloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtda bajarishi uchun ular 15 yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasini o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yilishi qonun bilan belgilab qo'yilgan. Ammo bugungi kunga kelib voyaga yetmagan shaxslar ishlayman deb tursa xam ko'pchilik ota-onalar farzandini o'ynab kulsin deya ayaydi va mehnat qilishiga yo'l bermaydi.

18 yoshga to'lmagan shaxslarni ishga qabul qilishda mahalliy mehnat organi va boshqa organlar tomonidan yuborilgan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni ish beruvchi ishga qabul qilishi shart. Belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga qabul qilishni rad etish taqiqlanadi va bunday rad etish ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

18 yoshga to'lmagan barcha shaxslar dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina ishga qabul qilinadilar va keyinchalik ular 18 yoshga to'lgunlariga qadar har yili majburiy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tkazilib turilishi kerak.



18 yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga aravacha va vaganet yordamida yuk tashishlariga ruxsat etilmaydi.

16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning ish vaqti faqat yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, ular uchun yuk ko'tarish va tashish normasining chegarasi 2 kg dan og'ir bo'lmasligi lozim.

16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ish vaqtining uchdan bir qismi yuklarni qo'lda ko'tarish va tashish bilan bog'liq ishlardan iborat bo'lganda, qo'lda yuk ko'tarish va tashish normalarining chegarasi: o'g'il bolalar uchun 6,5 kg, qiz bolalar uchun 3,5 kg dan og'ir bo'lmasligi lozim.

Yakka mehnat nizolari ko'rib chiqish tartibi. Mexnat kodeksi bilan tartibga solingan va Fuqarolik prosessual kodeksi bilan belgilanishi qonuniylashtirilgan albatta. Shunga qo'shimcha ravishda ijtimoiy himoyaga muxtoj, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini ish bilan ta'minlash, ularning mexnat sharoitini nazorat qilib turish, mexnatga bo'lgan huquqlari poymol bo'lgan taqdirda ish beruvchini javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqish lozim.

Mehnat to'g'risidagi qonun xujjatlarida *“xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini inobatga olgan holda, haqqoniy va xavfsiz mehnat sharoitlarini, xodimning mehnat huquqlarini va sog'lig'ini ximoya qilinishini taminlaydi”* deb qat'iy belgilangan, ammo ish beruvchi xususiy tadbirkor voyaga yetganni ham, voyaga yetmaganni ham birday ishlashini talab qiladi va sog'lig'iga javob bera olmaydi. Masalan xodim ish joyida jaroxat olsa, ish beruvchi davolatmaydi, xatto voyaga yetmagan bo'lsa ham. Chunki xodim bunday xuquqi borligini bilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Mexnat kodeksi. T. 2008 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T. 2019 yil.



МАЪМУРИЙ СУД ИШЛАРИНИ ЮРИТИШДА ТАРАФЛАРНИНГ ТОРТИШУВИ ВА ТЕНГ ХУҚУҚЛИЛИГИ

Самандаров Учкун Уктамович,

Термиз туманлараро маъмурий судининг судьяси,

Судьялар олий мактаби мустақил изланувчиси.

Телефон: +998909466000

АННОТАЦИЯ: Мамлакатимизда қонун устиворлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш ислохотларнинг асосий ва бош мақсади ҳисобланади. Мазкур мақола маъмурий ва бошқа оммавий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларни судларда кўришда тортишувчанлик принципини рўёбга чиқариш ҳамда ишда иштирок этувчи шахсларнинг тенг ҳуқуқлигини таъминлашнинг ўзига хос жиҳатларини очиб беради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Тарафларнинг тортишуви, Тенг ҳуқуқлилик, Функционал принцип, Маъмурий орган, Маъмурий ва бошқа оммавий-ҳуқуқий муносабат, Низо.

Буюк юнон файласуфи Сукротнинг барчага маълум бўлган шундай бир таниқли ибора-си бор “Ҳақиқатга тортишув билан эришилади”. Ушбу ибора ҳозирги кунда суд ишларини кўришда ҳам энг муҳим дастуруламал ва қоида сифатида намоён бўлмоқда.

Суд ишида қонуний ва асосли қарор қабул қилиш тарафларнинг тортишуви ва унда иштирок этувчи шахсларнинг тенг ҳуқуқлигини таъминлаш билан ҳамбарчас боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси (бундан буён матнда МСИЮтК деб юритилади) қабул қилиниши билан мамлакатимизда маъмурий ва бошқа оммавий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларни кўриб чиқишнинг аниқ талаблари ва тартиби белгиланди.

Ҳар бир процессуал ҳуқуқ тизимида бўлгани каби маъмурий суд ишларининг кўрилишида суд томонидан бир қатор нормаларга амал қилиш керак бўлади. Суд ишларини юритишнинг раҳбарий қоидаси ҳисобланган принципларсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги маъмурий суд ишлари юритишнинг муҳим принципларидан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда суд-ҳуқуқ ислохотларининг асосий вазифасидан бири ҳам суд процессларида тортишувчанлик принципини кучайтириш, тарафларнинг суд процессидаги фаоллигини ошириш, уларга иш бўйича далиллар тўплаш ва уни судга тақдим этиш бўйича кенг имкониятлар яратишдан иборатдир. Зеро, Ҳаракатлар стратегиясининг “Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд-ҳуқуқ тизимини янада ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари” деб номланган иккинчи йўналишида ҳам суднинг мустақиллиги ва беғаразлиги, суд процессида томонларининг тортишуви ва тенг ҳуқуқлик тамойилларини ҳар томонлама татбиқ этиш назарда тутилганлигини такидлаш жоиз.

Суд ишларини юритишда тортишув принципи қуйидагиларда намоён бўлади:

биринчидан, ишда иштирок этувчи ҳар қандай шахс иш тўғрисида арз қилиши, баёнотлар бериши, эътироз билдириши, илтимослар қилиши, судга далиллар топшириш билан ўзининг ҳақлигини исботлаши, иш мазмуни бўйича ўз фикрларини айтиши мумкин;

иккинчидан, агар ишда прокурор иштирок этаётган бўлса, ишнинг айрим масалалари юзасидан, шунингдек ҳамма иш бўйича судга ўз фикрини бериши, башқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш учун судга ариза билан иш қўзғатган ҳолатларда аризачи ҳуқуқ ва мажбуриятларини амалга ошириши мумкин;

учинчидан, суд ҳолисона усул билан ҳақиқатни аниқлаш мақсадида ўз ташаббуси билан далиллар тўплаш ҳуқуқига эгадир.

Маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги принципи фуқаролик қонунчилиги доирасидан ажралиб чиққан бўлиб, илмий қарашларда тарафларнинг тортишув принципага турлича таърифлар мавжуд. Хусусан, ўзбек цивилист олими Д.Ю.Хабибуллаевнинг фикрича, тортишувчанлик тамойили бу ишда иштирок этувчи шахсларнинг иш учун аҳамиятга эга бўлган ҳолатларни исботлаш йўли билан ўз талаб ва эътирозларини суд олдида билдириш, барча протессуал ҳаракатларда иштирок этиш ва ҳал қилиниши лозим бўлган барча масалалар юзасидан ўз фикрларини баён қилиш, шу-



нингдек судга иш ҳолатларини аниқлаш ҳамда тегишли далилларни тўплашга фаол ёрдам кўрсатишдаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари йиғиндисидир.

Г.А. Шмавоняннинг фикрига кўра, фуқаролик ва жиноят процессуал жараёнда тарафларнинг тортишуви бир хилда намоён бўлади. Ушбу жараёнда тарафлар бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларга эга бўлади ва уни бир хилда амалга оширади, шунингдек суд ҳеч бир тарафга устунлик бермайди.

Маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги принципнинг белгиланганлиги бу маъмурий ва бошқа оммавий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларда иштирок этувчи тарафлардан бири давлат ёки у ваколат берган орган иштирок этиши, ва унда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини оддий фуқаро ёки юридик шахснинг мақоми билан бир хилда қўллашни назарда тутати.

Рус ҳуқуқшунос олими Е.А.Шилованинг қарашича, маъмурий судлов ишларининг ўзига хос хусусияти бўлиб, бир томонидан ҳар доим давлат ҳокимияти ваколатларига эга субъект иштирок этади ва улар оддий фуқаро ёки юридик шахсларга нисбатан суд жараёнида ўз ҳуқуқ ва манфаатларини амалга ошириш, ҳимоя қилишда имконияти анча кенг ҳисобланади. Ушбу жараёнда суд тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги принципини қўллаб, фуқаро ва юридик шахслар бўлган томонга ўз ҳуқуқларини рўёбга чиқаришда қўмаклашишга мажбур бўлади.

О.Б. Панкованинг фикрича, маъмурий суд ишларини юритиш жараёнида суд тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилигини таъминлаш билан бирга, аризачига унинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш мақсадида, илтимосга кўра далилларни таъминлаш, дастлабки ҳимоя чоралари кўриш, маъмурий органлардан тегишли далилларни талаб қилиб олиш каби ваколатларни амалга оширади. Зарур ҳолларда суд ҳақиқатни таъминлаш мақсадида иш бўйича аризачи бўлган манфаатдор шахсларга қўмаклашиб, далилларни тўплашда уларнинг амалга ошира олмаган процессуал ҳаракатларини суд ўз ташаббусига кўра ҳам амалга оширади. Ушбу жараёнда суд ўз-ўзидан тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилигига таъсир этади. Айнан шу хусусияти билан маъмурий судишларини юритишдаги бу принцип фуқаролик ёки жиноят процессуал жараёндан фарқ қилади.

Тортишув принципи ишда иштирок этувчи шахсларнинг иш юзасидан ўз талаб ва эътирозларини исботлашдаги фаоллигини, улар томонидан иш материалларини тузиш тартибини белгилайди, протсессда суднинг ролини оширади ва шу орқали суд томонидан қонуний, асосли ва адолатли қарор қабул қилинишини таъминлайди.

Тортишув принципнинг моҳияти шундан иборатки, суд ишларини юритишда тарафлар ўз манфаатлари юзасидан бир-бирларига қарама-қарши бўладилар ҳамда ишларни судда муҳокама қилиш улар ўртасидаги низоли масалани ҳал қилиш асосида олиб борилади.

Ёндашувларга кўра, суд жараёнида тортишув принципи ишда иштирок этувчи шахсларнинг фаоллиги асосига тузилган бўлиб, у ўз табиатига кўра демократик ва унинг натижалари ишонарлидир.

Тортишув принципи тенг ҳуқуқлилиги принципи билан ёнма-ён келади. Зеро, тарафлар тенг ҳуқуқли бўлмас экан, улар ўртасида тортишувнинг бўлиши ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Тарафларнинг тенг ҳуқуқлилиги Конституциянинг 18-моддаси билан ҳам кафолатлаб қўйилган. Унга кўра, Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар.

Мазкур Конституциявий ва ўз навбатида суд ишлари юритишнинг функционал принципи МСИЮТда белгиланган бўлиб, унга кўра маъмурий суд ишларини юритиш тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқлилиги асосида амалга оширилади.

Суд ҳолислик ва беғаразликни сақлаган ҳолда, тарафлар ўз процессуал мажбуриятларини бажариши ва ўзларига берилган ҳуқуқларни амалга ошириши учун зарур шароитлар яратиб беради.

Суд маъмурий иш бўйича барча ҳақиқий ҳолатларни ҳар томонлама ва тўлиқ аниқлаш чораларини кўради.

Мазкур принципнинг ўзига хос хусусиятларидан бири бу унинг маъмурий суд ишлари юритишнинг барча босқичларида амалда бўлишидир.

Маъмурий суд ишлари юритишда тарафлар сифатида бир томонда фуқаро ёки юридик шахс турса, бошқа томонда эса доимий равишда маъмурий орган ёки мансабдор шахс



ёхуд давлат ваколат берган орган, ташкилот ёки муассасалар туради. Бундан жараёнда суд тарафларнинг суд жараёнидаги мувозанатини сақлаш чораларини кўриши лозим бўлади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, маъмурий суд ишларини юритишда тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқчилиги принципи қуйидагиларда:

ишда иштирок этувчи шахслар (аризачи ва жавобгар) иш материаллари билан танишиш, улардан кўчирмалар (ёки нусха) олиш, суд таркибини ва суд процессининг бошқа иштирокчиларини рад қилиш, далиллар тақдим этиш, далилларни текширишда иштирок этиш, саволлар бериш, илтимосномалар киритиш, судга оғзаки ва ёзма тушунтиришлар бериш, ишни кўриш давомида юзага келадиган барча масалалар бўйича ўз важларини, хулосаларини тақдим қилиш, ишда иштирок этувчи бошқа шахсларнинг илтимосномалари, важларига эътироз билдириш, суд ҳужжатлари устидан шикоят қилиши;

ўзларига тегишли барча процессуал ҳуқуқлардан инсофли равишда фойдаланиши, тарафларнинг ўз вакиллариغا эга бўлиши ва улардан суд ишларини юритишда фойдаланиши;

ҳар бир тараф ўз талаблари ва эътирозларига асос қилиб келтираётган ҳолатларни исботлаши (Маъмурий органларнинг низолашилаётган ҳужжатларининг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари қарорларининг, улар мансабдор шахслари ҳаракатларининг (ҳаракатсизлигининг) қонунийлигини исботлаш мажбурияти тегишли органлар ва мансабдор шахслар зиммасига юклатилади);

далиллар тақдим этиш, далилларни талаб қилиб олиш, далилларни таъминлаш тўғрисида ва дастлабки ҳимоя чораларини кўриш тўғрисида судга илтимосномалар киритиш, далилларни суд мажлиси биносида ёки ундан ташқарида текшириш жараёнида, суд музокарасида бевосита иштирок этиш ва бошқа ҳуқуқларини амалга оширишда намоён бўлади.

Шундай экан, суд жараёнида тарафларнинг тортишуви ва тенг ҳуқуқчилигининг таъминланиши, унинг ҳаққоний ва холис ўтказилганлигининг, шу билан бирга, ишни кўриш якунида чиқарилган қарорларнинг қонуний ва асосли бўлишининг муҳим шарти ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.2018 й., 02/18/МПК/0627-сон, 13.01.2021 й., 03/21/662/0012-сон).
2. Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқининг тамойиллари ва уларни суд амалиётида татбиқ этиш муаммолари. Юрид. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Тошкент, ТДЮИ. 2007.
3. Шмавонян Г.А. Конституционное правосудие в системе разделения властей. М., 2001. С. 149.
4. Е.А. Шилова. Принципы административного судопроизводства. моногр. дис. ... док. юрид. наук. -М., 2012. С. 118.
5. Панкова О.В. Принципы административного судопроизводства и проблемы их реализации в судах общей юрисдикции // Международный экспертный семинар «Роль административной юстиции в защите прав человека». М., 2010. С. 77.
6. Власов А.А. Гражданское процессуальное право. Учебник. –М.: Верховный суд Российской Федерации, Высший Арбитражный суд Российской Федерации, Российская Академия правосудия. 2003. -29 с.



O‘QUVCHILARNI HUQUQ FANIGA QIZIQTIRISHDA TURLI XIL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Boboxonova Muyassar Ruzimurodovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
6-maktab huquq fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarni huquq faniga qiziqitirishda turli xil usullardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol usullar, Konstitutsiya, Nilufar guli, domino, huquq...

Ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ta’limni hayot bilan bog‘lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilayapti. Keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratishni taqazo etmoqda. Buning uchun ta’lim jarayonida nafaqat ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ham ta’minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish kerak bo‘ladi. Shundagina har bir dars o‘quvchiga tez va samarali yetkaziladi u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi. Ayniqsa, darslarni integratsiyalashgan holda tashkil etish bugungi kunning asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Jumladan, huquq darslarini ham geografiya, adabiyot, matematika kabi fanlar bilan bog‘lagan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida o‘quvchilarni huquq faniga qiziqitirishda turli xil usullari haqida keltirib o‘tishni joiz topdim.



“Qo‘shimcha ma’lumot izlayman” usuli.

O‘quvchilarga darslikda yo‘q ma’lumotni topib kelish uyga vazifa qilib beriladi. O‘quvchilar kutubxonadanmi yoki internet orqalimi ana shunday ma’lumot topib kelgan bo‘lsa, guruhiga qo‘shimcha ”rag‘bat” olib beradi. Bu usul orqali o‘quvchilarni huquq faniga oid ma’lumotlarga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish mumkin.

“Domino” usuli. Bunda savollar boshlab berilib, unga ketma-ketlikda javob topiladi.



Nilufar guli usuli. Bunda gulning markazida bayroq, gerb va davlat ramzlari so‘zlari yozilgan. Har bir guruh o‘quvchilari ushbu gulning yaprog‘idagi ta’rifni to‘g‘ri joylashtirishi kerak.



“Sirli sandiq” usuli o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishi uchun juda samarali usuldir. Ushbu usul vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o‘quvchilar navbat bilan boshqaruvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga mashg‘ulotda o‘rganilgan mavzu yuzasidan savollar yoziladi, dastlab boshqaruvchi rolini bajarayotgan o‘quvchi qayd etilgan savollarga asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So‘ngra o‘quvchilardan sinf taxtasida yozilgan savollarga javob so‘raydi, to‘g‘ri javob bera olgan o‘quvchi boshqaruvchi lavozimimi bajaradi. O‘quvchilarda boshqaruvchilik qobiliyatini oshirish va sinfda boshqaruvchi bo‘lish uchun qora qutiga tushmaslik, ya’ni, savollarga to‘liq javob berishga intilish, mavzuni diqqat bilan tinglash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ushun bu usul samaralidir.

“Rasmga mos joy top” usuli: Guruhlarga Konstitutsiyaning moddalari aks etgan varaqalar tarqatiladi, o‘quvchilar kataklarga mos rasmni topib qo‘yishlari kerak.

Katakchalarga mos so‘zni olib kelib joylashtiring

40-modda: Har bir inson malakali xizmatdan foydalanish huquqiga ega.



47-modda: Barcha fuqarolar belgilab qo‘yilgan burchlarni bajaradilar.



49-modda: Fuqarolar O‘zbekiston xalqining avaylab asrashga majburdirlar.



“Mantiq va ma’rifat” usuli. Bu usulda o‘quvchilar 2 guruhga ajratilib, savollar bilan murojaat qiladi va javoblar birgalikda muhokama qilinadi.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi usullar orqali davom ettirish mumkin. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o‘quvchiga puxta va chuqur bilim berish, huquq faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta’minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Qosimov.”Milliy uyg‘onish”.”Sharq” 2004-y
- 2.R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. –T.: TDPU, 2004-y.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
